# ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2021- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5726,8 mlrd. soʻmni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 135,2 % ga koʻpaydi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, oʻtgan yilning mos 11,6 % punktga koʻpayib, 13,8 %ni yoki 789,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 937,5 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 86,2 % investitsiyalari oʻzlashtirilib, oʻtgan yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 57,5 % punktga koʻpaydi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

*Markazlashgan investitsiyalar*
*789,2 mlrd. soʻm*

*5 726,8 mlrd. soʻm*
*oʻsish surʻati 135,2 %*

*Markazlashmagan investitsiyalar*
*4 937,5 mlrd. soʻm*

OʻzR kafolati ostida xorijiy kreditlar
19,9 mlrd. soʻm

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar
1 852,2 mlrd. soʻm

Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya
274,8 mlrd. soʻm

## Markazlashgan investitsiyalar

| Moliyalashtirish manbalari | Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|
| Respublika budjeti | 8,9 % | 133,7 % |
| Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 0,9 % | 33,5 % |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 3,7 % | - |
| O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy | 0,3 % | 6,9 % |

## Markazlashmagan investitsiyalar

| Moliyalashtirish manbalari | Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|
| Korxona mablag‘i | 19,9 % | 165,6 % |
| Aholi mablag‘lari | 22,0 % | 132,0 % |
| Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar | 32,0 % | 164,4 % |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz | 12,3 % | 107,5 % |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 4,8 % | 106,7 % |

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 138,7 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,0 %i yoki 1 262,4 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 274,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,7 % ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,8 %ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m

**Respublika budjeti-507,8 mlrd.so‘m**



**Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-52,2 mlrd. so‘m**



**Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-209,5 mlrd. so‘m**



**O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar-19,9 mlrd. so‘m**



**Korxona mablag‘lari-1138,7 mlrd.so‘m**



**Aholi mablag‘lari-1262,4 mlrd. so‘m**



**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-1832,3 mlrd. so‘m**



**Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-704,1 mlrd. so‘m**



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 704,1 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,3 %ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,6 % tashkil qildi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 19,9 mlrd. so‘m (0,3 % va 274,3 % punktiga kamaydi),boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 1832,3 mlrd. so‘m (32,0 % va 65,0 % punktga ko‘paydi),Respublika budjeti 507,8 mlrd. so‘m (8,9 % va 66,6 % punktga ko‘paydi), Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 52,2 mlrd. so‘m (0,9 % va 223,2 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

| Shahar va tumanlar | hajmi, mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati | viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|---|
| Urganch shahar | 1492,1 mlrd. so‘m | 137,7 % | 26,1 % |
| Xiva shahar | 251,9 mlrd. so‘m | 139,9 % | 4,4 % |
| Bog‘ot tumani | 389,5 mlrd. so‘m | 116,7 % | 6,8 % |
| Gurlan tumani | 296,0 mlrd. so‘m | 101,7 % | 5,2 % |
| Qo‘shko‘pir tumani | 306,1 mlrd. so‘m | 120,9 % | 5,3 % |
| Urganch tumani | 359,1 mlrd. so‘m | 106,0 % | 6,3 % |
| Xazorasp tumani | 457,4 mlrd. so‘m | 207,3 % | 8,0 % |

| Shahar va tumanlar | hajmi, mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati | viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|---|
| Tuproqqal’a tumani | 272,0 mlrd. so‘m | 168,1 % | 4,8 % |
| Xonqa tumani | 472,2 mlrd. so‘m | 106,9 % | 8,2 % |
| Xiva tumani | 306,9 mlrd. so‘m | 189,5 % | 5,4 % |
| Shovot tumani | 323,0 mlrd. so‘m | 133,2 % | 5,6 % |
| Yangiariq tumani | 488,1 mlrd. so‘m | 184,4 % | 8,5 % |
| Yangibozor tumani | 312,4 mlrd. so‘m | 121,1 % | 5,5 % |

## 2021- yil yanvar- sentabr oylarida investitsiyalarning o‘sish sur’atlari, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori oʻsish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Hazorasp tumani 207,3 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 457,4 mlrd.soʻm), Xiva tumani 189,5 % (306,9 mlrd. soʻm), Yangiariq tumani 184,4 % (488,1 mlrd. soʻm), Tuproqqal'a tumani 168,1 % (272,0 mlrd. soʻm).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. soʻm**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat boʻyicha yuqori ulush quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahar 26,1 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1492,1 mlrd. soʻm), Yangiariq tumani 8,5 % (488,1 mlrd. soʻm), Xonqa tumani 8,2 % (472,2 mlrd. soʻm), Xazoraso tumani 8,0 % (457,4 mlrd. soʻm).

## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2021- yilning yanvar-sentabrida 3007,9 ming so‘m yoki 133,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Urganch shahriga to‘g‘ri kelib 10 254,8 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 136,3 % ni tashkil etdi. Tuproqqal’a tumanida 4919,2 ming so‘m (yoki 167,8 %) va Yangiariq tumanida 4143,6 ming so‘m (yoki 181,7 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, ( %da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 44,5%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 50,0%, boshqa xarajatlarning ulushi 5,5% ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o’zlashtirish: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 1411,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 24,6%, ishlab chiqarish sanoati – 945,0 mlrd. so‘m (yoki 16,5%), qurilish - 261,1 mlrd. so‘m (yoki 4,6%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 289,2 mlrd. so‘m (yoki 5,0%), ta'lim - 158,5 mlrd. so‘m (yoki 2,8%), uy-joy qurilishi - 804,1 mlrd. so‘m (yoki 14,0%) va boshqa faoliyat turlari – 1663,2 mlrd. s o‘m (yoki 29,1%).

## Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 1852,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirilib (dollar ekvivalentida 176,5 mln. AQSh doll.), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 132,1 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 295,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi ,shuningdek, 1556,7 mlrd. so‘m xorijiy kreditlarga to‘g‘ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidanto‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 274,8 mlrd. so‘mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 19,9 mlrd. so‘mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 1557,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumaniga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 16,8 % ni ta’minladi, Xonqa tumanida 8,4 %, Bog‘ot tumanida 8,2 % kuzatildi.





# Xorijiy investitsiya va kreditlar

| | *Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd. so'm* | | *Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan % da.* | |
|---|---|---|---|---|
| | *Jami:* | *Shu jumladan, kreditlar:* | *Jamiga:* | *Asosiy kapitalga investitsiyalar:* |
| **Xorazm viloyati** | **1852,2** | **1556,7** | **100** | **32,3** |
| *shahar va tumanlar:* | | | | |
| **Urganch sh.** | 147,4 | 82,6 | 7,9 | 9,9 |
| **Xiva sh.** | 74,0 | 55,0 | 4,0 | 29,4 |
| **Bog'ot** | 152,9 | 152,9 | 8,2 | 39,3 |
| **Gurlan** | 125,1 | 124,3 | 6,7 | 42,3 |
| **Qo'shko'pir** | 124,5 | 107,9 | 6,7 | 40,7 |
| **Urganch** | 124,9 | 103,4 | 6,7 | 34,8 |
| **Hazorasp** | 136,3 | 73,7 | 7,3 | 29,8 |
| **Tuproqqal'a** | 136,7 | 136,0 | 7,3 | 50,3 |
| **Xonqa** | 156,1 | 153,5 | 8,4 | 33,1 |
| **Xiva** | 110,8 | 97,9 | 5,9 | 36,1 |
| **Shovot** | 149,6 | 134,4 | 8,0 | 46,3 |
| **Yangiariq** | 300,9 | 241,7 | 16,8 | 61,6 |
| **Yangibozor** | 112,8 | 93,5 | 6,0 | 36,1 |

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 32,3 % ni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish *(mlrd. so‘m)***




Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,1 % yoki 19,9 mlrd. so‘m, 98,9 % yoki 1832,3 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 274,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Nashr uchun mas’ul: Sh.Babajanov**
**Telefon: (0362) 224-65-22.**